



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI  
QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI

**CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**



**Dastlabki ma'lumot**  
2025- yil yanvar

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi**  
Тел.(75)-221-44-28

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligida ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari  
o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar oyi, foizda)**




2025-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6182 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 20 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 6162 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

### Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2020- 2024- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar)



2024-y.

2025-y.

2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **108,2 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1712,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 108,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 84,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 99,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1354,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,2 %), jumladan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 273,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,2 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari  
(2025- yil yanvar oyи)**

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1712,2</b>	<b>108,2</b>
Qarshi sh.	479,7	119,9
Shahrisabz sh.	133,0	106,0
G'uzor	65,6	104,0
Dehqonobod	49,6	101,2
Qamashi	108,7	102,0
Qarshi	53,3	107,0
Koson	122,9	104,1
Kitob	79,4	104,0
Mirishkor	53,2	103,2
Muborak	41,1	102,7
Nishon	61,7	103,9
Kasbi	61,1	101,2
Ko'kdala	56,1	102,7
Chiroqchi	142,9	105,9
Shahrisabz	61,1	106,1
Yakkabog'	82,5	101,8

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Qarshi shahri (119,9 %), Qarshi (107,0 %) va Shahrisabz (106,1 %) tumanlarida va Shahrisabz shahri (106,0 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 28,0 % bilan 479,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Muborak tumani 2,4 % bilan 41,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.



### Hajmi, mlrd. so'm



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1354,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 108,2 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 79,1 % ni tashkil etdi.

<b>103,4 %</b>	<b>Kitob</b>
<b>104,4 %</b>	<b>Koson</b>
<b>105,6 %</b>	<b>Shahrisabz</b>
<b>105,9 %</b>	<b>Shahrisabz sh.</b>
<b>106,0 %</b>	<b>Qarshi</b>
<b>123,1 %</b>	<b>Qarshi sh.</b>

## Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 0,9 % ga kamaydi va 84,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,9 % ulushiga to'g'ri keldi.

<b>124,4 %</b>	<b>Mirishkor</b>
<b>130,1 %</b>	<b>Qamashi</b>
<b>130,1 %</b>	<b>G'uzor</b>
<b>132,9 %</b>	<b>Yakkabog'</b>
<b>135,7 %</b>	<b>Kasbi</b>
<b>140,6 %</b>	<b>Qarshi</b>
<b>143,1 %</b>	<b>Nishon</b>



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI


## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Nishon	1,2	98,8
Qamashi	1,4	98,6
Mirishkor	1,1	98,9
Dehqonobod	1,4	98,6
Yakkabog'	1,9	98,1
Shahrisabz sh.	2,8	97,2
Qarshi	2,4	97,6
Chiroqchi	2,0	98,0
Kitob	2,6	97,4
G'uzor	7,1	92,9
Ko'kdala	4,4	95,6
Koson	5,4	94,6
Kasbi	1,5	98,5
Qarshi sh.	6,8	93,2
Muborak	0,7	99,3
Shahrisabz	20,0	80,0

Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy  
tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muborak (99,3 % ), Mirishkor (98,9 % ), Nishon (98,8 % ) tumanlari Qamashi va Dehqonobod tumanlari( 98,6 % ), Kasbi (98,5 % ) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 4,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz (20,0 % ), G'uzor (7,1 % ) tumanlari, Qarshi shahrida (6,8 % ) va Koson tumanida (5,4 % ) kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda)



2025- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 475,6 ming so'm (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 105,8 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi (1608,8 ming so'm) va Shahrisabz shaharlari (894,7 ming so'm) hamda Chiroqchi tumani (527,1 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar), foizda



# UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025-yil yanvar)

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>273,1</b>	<b>111,2</b>
Qarshi sh.	23,4	106,9
Shahrisabz sh.	8,5	121,0
G'uzor	16,6	114,1
Dehqonobod	9,0	114,7
Qamashi	19,7	114,9
Qarshi	5,2	110,0
Koson	12,7	110,1
Kitob	14,8	107,5
Mirishkor	2,6	120,6
Muborak	12,9	111,0
Nishon	15,1	109,4
Kasbi	7,8	111,2
Ko'kdala	26,6	110,6
Chiroqchi	75,1	111,3
Shahrisabz	8,8	111,6
Yakkabog'	14,2	108,6


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar  
aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda  
(2025- yil yanvar)**



**Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2025- yil yanvar)**



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 273,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 111,2% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva), (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 118,4 mlrd. so'mni (107,8%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 154,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (114,6%).

2025-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida jaylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 118,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzelgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (63,0 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

## Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi 1361,8

<b>Yangi uzelgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> <b>63,0</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Non va non mahsulotlari</b> <b>19,3</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b> <b>5,7</b> <b>mlrd. so'm</b>
53,9 %	16,3 %	4,8 %
<b>Tovuq go'shti va go'sht mahsulotlari</b> <b>8,0</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b> <b>3,3</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Tuxum</b> <b>3,5</b> <b>mlrd. so'm</b>
6,8 %	2,8 %	3,0 %
<b>Ziravorlar</b> <b>5,5</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> <b>3,8</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b> <b>1,2</b> <b>mlrd. so'm</b>
4,7 %	3,2 %	1,0 %
<b>Tuzlamalar</b> <b>2,6</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> <b>1,1</b> <b>mlrd. so'm</b>	<b>Nooziq-ovqat tovarlar</b> <b>1,4</b> <b>mlrd. so'm</b>
2,2 %	0,1 %	1,2 %

2025- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 154,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 106,7 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 41,0 mlrd. so'mni, otlar – 6,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

### **Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi**

<b>2 yoshtan katta bo'lgan qoramollar</b> <b>68,5</b> <b>mlrd. so'm</b>  44,3 %	<b>1 yoshtan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b> <b>29,5</b> <b>mlrd. so'm</b>  19,1 %	<b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b> <b>8,7</b> <b>mlrd .so'm</b>  5,6 %
<b>Qo'ylar</b> <b>24,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  15,5 %	<b>Otlar</b> <b>6,2</b> <b>mlrd. so'm</b>  4,0 %	<b>Echkilar</b> <b>17,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  11,0 %
<b>Kurka, o'rdak, g'oz</b> <b>0,2</b> <b>mlrd .so'm</b>  0,1 %	<b>Tovuqlar</b> <b>0,6</b> <b>mlrd. so'm</b>  0,4 %	<b>Quyonlar</b> <b>0,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  0,0 %
<b>Qushlar</b> <b>0,0</b> <b>mlrd. so'm</b>  0,0 %	      	

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1442 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1440 tani tashkil qildi.

### **Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)**

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>1107,8</b>	<b>113,7</b>
Qarshi sh.	13,3	114,1
Shahrisabz sh.	3,0	106,5
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1,7	105,4
Dehqonobod	1,1	106,2
Qamashi	0,8	106,5
Qarshi	1,4	111,1
Koson	1,5	106,6
Kitob	4,1	102,7
Mirishkor	0,6	109,1
Muborak	4,7	97,5
Nishon	3,6	112,7
Kasbi	1,1	103,9
Ko'kdala	0,7	106,4
Chiroqchi	1,7	108,2
Shahrisabz	0,8	110,5
Yakkabog'	1,7	108,9

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1107,8 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	<b>Hajmi, mlrd. so‘m</b>	<b>Ulushi, foizda</b>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	181,0	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	161,4	89,2
Shahrisabz sh.	0,5	0,3
<i>tumanlar:</i>		
G‘uzor	0,3	0,2
Dehqonobod	0,5	0,3
Qamashi	0,2	0,1
Qarshi	10,5	5,8
Koson	0,8	0,4
Kitob	0,8	0,4
Mirishkor	1,2	0,7
Muborak	0,8	0,5
Nishon	1,1	0,6
Kasbi	0,7	0,4
Ko‘kdala	0,4	0,2
Chiroqchi	1,4	0,8
Shahrisabz	0,1	0,0
Yakkabog‘	0,3	0,2


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (161,4 mlrd. so‘m), Qarshi (10,5 mlrd. so‘m) va Chiroqchi (1,4 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 181,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 64,0 % ga o'sgan. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 74,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 65,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 106,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati 62,7 %)ni tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 534,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga o‘sdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 504,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 94,4 % ni tashkil qildi.

## Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>534,7</b>	<b>107,0</b>
Qarshi sh.	210,0	100,3
Shahrisabz sh.	48,4	112,1
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	16,2	103,3
Dehqonobod	2,3	105,7
Qamashi	14,6	115,8
Qarshi	33,1	111,9
Koson	32,7	104,1
Kitob	26,4	110,7
Mirishkor	12,9	101,0
Muborak	7,5	113,3
Nishon	8,2	97,7
Kasbi	13,2	760,5
Ko'kdala	1,7	106,3
Chiroqchi	15,3	100,1
Shahrisabz	11,0	91,7
Yakkabog'	10,4	107,0

2025-yil 1-fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2054 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2044 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari ega eng yirik korxonalar Qarshi (25,6 m. %) va Qamashi (148,6 %) tumanlarida kuzatildi.